



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

3. Eastman, C., Teicholz, P., Sacks, R., & Liston, K. (2018). *BIM Handbook: A Guide to Building Information Modeling*. Wiley.
4. United Nations (2020). *World Urbanization Prospects*. Department of Economic and Social Affairs.
5. Kolarevic, B. (2003). *Architecture in the Digital Age: Design and Manufacturing*. Taylor & Francis.
6. Akademiya arxitektury Uzbekistana (2022). *Metodologiya prepodavaniya arxitektury v usloviyax sifrovoy transformatsii*. Tashkent: Uzbekistanskaya arxitekturnaya shkola.
7. Baydjanov I.S. Klyuchevyye problemy vysshego obrazovaniya v Uzbekistane i vozmojnye puti ix resheniya . Nauka i obrazovanie segodnya №2 (83) 2025
8. Baydjanov I.S. Problemy i puti resheniya v arxitekturnom obrazovanii v Uzbekistane .Nauka i obrazovanie segodnya №1 (82) 2025

ARXITEKTURA VA ARXITEKTORLARNING BUGUNI VA KELAJAGI HAQIDAGI BA’ZI MULOHAZALAR

A.S.Uralov

SamDAQU professori, arxitektura fanlari doktori

Men maskur maqolada O‘zbekiston arxitektorlarining ijtimoiy hayotda va vatan tag‘diri oldida tutgan o‘rni va ro‘li o‘tmishda qanday bo‘lgan va hozirgi vaqtda hamda kelajakda qanday bo‘lmog‘i kerak degan savollarga javob berish bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarimni bayon etmoqchiman. Bunday savollar respublikamizda arxitektorlarni qo‘llab quvvatlaydigan, ularni mashaqqatli mehnati va ijodini, nomlarini ro‘yabga chiqarishga masul bo‘lgan O‘zbekiston me‘morlar uyushmasining hozirgi vaqtdagi sust faoliyati natijalariga bog‘liq holda yuzaga keldi.

Hammamizga ma’lumki, arxitektura hamma vaqt insoniyatning moddiy-madaniy kechinmalaridan xabar beruvchi san’atning bir turi bo‘lib kelgan. Milloddan avvalgi I ming yillikdagi adabiyot asarlari hanuzgacha sukut saqlab kelayotgan bir

paytda, me'morchilik arxeologlarimizning mashaqqatli izlanishlari tufayli o'zining qadimiy an'alarini namoyish qilib kelmoqda. Jumladan, Surxandaryo vohasidagi Sopollitepa me'moriy yodgorligi arxitekturaning omma uchun nafaqat boshpana, balki uni tashqi hujumlardan qo'riqlanish uchun ham aql bovar qilmaydigan strategik rejada qurilganligi kishini hayratda qoldiradi. Uning tashqi tomoni 8 ta koridor qopqondan tashkil topishi har qanday havf-xatarni bartaraf etish imkonini bergan. Bu esa uzoq o'tmishda ham me'morlar bunday obidani avvaldan puxta o'ylab ishlab chiqqan chizmalar asosida qurganligidan dalolat beradi. Ular shaharchani har tomonlama puxta bo'lishi ustida bosh qotirishgan.

Xorazmdagi Tuproq qal'a, Jonbos qal'a yoki Qo'yqirilgan qal'alarni aytmaysizmi. Ularning nafaqat tarhi, umumiy kompozitsiyasi, konstruktiv asoslarining naqadar mukammalligi, me'moriy qismlarining bir-biriga mutanosibligi, bezaklari kishini lol qoldiradi. Bunday me'moriy shahar va obidalarining yuzaga kelishi o'z o'zidan bo'lmagan. Ularni yaratish uchun me'morlar jonini jabborga qo'yib izlanishgan. Bunday imoratlar loyihasining yuzaga kelishi va qurilishi o'sha davr me'morlarining yuksak salohiyati, bilim va kasbiy mahorati hamda davlat hukmdori bilan hamfikir bo'lganligidan, hamkorlikda ish olib borganligidan dalolat beradi. Me'morlar o'tmishda xalq va hukmdorlar tomonidan olqishlarga sazovar bo'lishgan, chunki ularning san'ati, yaratgan "asar"lari xalqqa, el-yurtga, hukmdorlarga xizmat qilgan. Har bir hukmdor davlat tepasiga chiqqandan so'ng birinchi navbatda o'z davlatining shaharlari, iqtisodiy va me'moriy ravnaqiga alohida e'tibor bergan. Ba'zida ular bor bisotini arxitektura va qurilishga sarflagan. Bundan maqsad, birinchidan, o'z vatanining go'zal imorat va inshootlarga boy bo'lishini ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, buyurtmachi shu orqali o'z nomini bir yo'la abadiylashtirgan. Turli davrlarni, turli podshohliklarni olib qarasak fikrimizning yaqqolligi o'z - o'zidan namoyon bo'ladi.

Misol uchun Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrini olib qaraylik. Ular yaratgan arxitekturaviy muhit hammamizga ayon. Butun dunyo me'moriy obidalarimizni ko'rishga oshiqadi. Ta'kidlashimiz lozimki, Amir Temur, SHohruh

Mirzo, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiylar nafaqat arxitektura, san‘at, balki fan va madaniyatning, davlatchilikning rivojlanishiga ham astoydil hissa qo‘shgan. O‘z davrinig me‘moru-muxandislari, binokor ustalari, bog‘bonlari, naqqoshlarini ulug‘lagan.

Keling, sobiq Ittifoq davriga ham bir nazar tashlaylik. Bu davrda ham ko‘p ishlar bajarildi, jumladan, O‘zbekistonda ham arxitektorlar, rassomlar, muhandislar sosalistik tuzum g‘oyalarini osmonlarga ko‘taruvchi loyihalar yaratishga kirishishgan. Fan, madaniyat, san‘at, adabiyot, poeziyaga alohida e‘tibor berilgan.

Respublika rahbariyati bu davr ijodkorlarining muvaffaqiyatlarini e‘tiborga olib, el-yurt ravnaqi yo‘lida xizmat qilgan boshqa sohalar namoyondalari qatorida, ularni ham turli davlat mukofotlari bilan rag‘batlantirishgan. Aynan o‘sha davrlarda o‘zbeklardan Abdulla Boboxonov, sal o‘tmay Sobir Adilovlar arxitektura sohasidagi yuksak xizmatlari uchun nafaqat “O‘zbekistonda hizmat ko‘rsatgan arxitektor”, balki “SSSR xalq arxitektori” faxriy unvonlariga sazovor bo‘lishgan.

Mustaqilligimizning boshlanish davriga ham bir nazar tashlaylik. Bu davrda bunyodkorlik va me‘morchilik sohasida nima loyihalangan va yaratilgan bo‘lsa, ularning barchasi respublikamizning birinchi prezidenti nomi bilan e‘lon qilinib kelindi. O‘sha davrlarda Mustaqillik davri imoratlari va inshootlarini loyihalagan arxitektorlar va quruvchilar nomi deyarli esga olinmadi. Ularning mehnatini qo‘llab-quvvatlashga, el yurtga ommalashtirishga ma’sul bo‘lgan tashkilotlar-O‘zbekiston Arxitektorlar uyushmasi va O‘zbekiston davlat arxitektura-qurilish qo‘mitasi ham sust ishladi. Ushbu tashkilotlar o‘shanda Mustaqillik davri arxitekturasini yaratishda jon kuydirgan biron-bir arxitektorni davlat mukofotlariga tavsiya etmadi, to‘g‘rirog‘i etolmadi.

Arxitekturada yakka fikrlilik, qurilishlarda shoshmashosharlik hukmron bo‘ldi. SHaharsozlikda ham katta salbiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Mablag‘ etmasligi bahonasi bilan loyihalangan baland binolarning yarimi qirqildi, natijada ular dumi qirqilgan otga o‘qshab qoldi. Magistral ko‘chalar bo‘yidagi ma’muriy binolar oralarida ortiqcha bo‘sh maydonlar qoldirildi. YAngi qurilgan binolarning orqasi tomoni

ko‘rinmaydi bahonasida aholi dam oladigan katta bog‘larda 200 -300 yillik daraxtlar butunlayicha tub–tubidan kesib tashlandi. YOki aksincha, yangi qurilgan katta binolarning bosh tarzlari ko‘rinib turishligi uchun ularning oldidagi daraxtzorlar qirqib tashlandi.

YAngi binolar bosh tarzlari faqat simmetriyada, go‘yoki o‘tgan asrning 40-50 yillarida yashagan arxitektorlar tomonidan loyihalangandek, oldi tarzining proporsiyalari nomutanosib ustunlarga o‘rnatilgan peshtoq, orderlar tizimi asosida, tomi esa ko‘p hollarda gumbaz bilan, barcha binolar, masalan kollej va litseylar, qishloq uylari tasdiqlangan tipovoy loyihalar asosida qurildi. YAngi loyihalar yaratish o‘rniga “privyazka” bilan shug‘ullanildi. Xabaringiz bor, Respublikada qurilish materiallari va konstruksiyalarini tajribadan o‘tkazadigan ilmiy-tekshirish instituti, me‘moriy obidalarni ilmiy-tekshirish va ta‘mirlash kabi nafaqat O‘zbekiston, balki butun O‘rta Osiyo miqiyosida ish olib borayotgan yirik institutlar bor edi. Ular Mustaqillikning birinchi kunidanoq bitta imzo bilan yopilib, binolari olib qo‘yildi. Ma‘lumki, me‘moriy obidalarimiz doimo ta‘mirlash muxtoj, ta‘mirlanganlarining ba‘zilari mutaxassisiz “mardikor” ustalar kuchidan foydalanib bajarildi. Aytish lozimki, bu davr ichida hamma o‘zini arxitektor, deb his qila boshladi, ayniqsa rahbar xodimlar. Vaholanki, arxitektorlar bir paytlar Amerikada arxitektura oliygoxlarida 10 yil, sobiq Ittifoqda 6 yil o‘qishgan. Bizda boshliq bo‘lsang sen arxitektor ham, olim ham, quruvchi ham bo‘laolasan, degan tushuncha mavjud edi.

Ilmu - fan masalasiga kelsak, bu davrda O‘zbekiston fanlar akademiyasi institutlari deyarli yopilish darajasiga kelishdi. Olimlar achinarli ahvolga tushib qoldi. Vaholanki, ularga sharoit tug‘dirib berish, texnologiya yaratishga undash, davlat rahbari olimlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi kerak edi. Sobiq Ittifoqning oxirgi yillarida O‘zbekistonda 4-5 nafar arxitektura doktori bor edi. Hozirgi kunda Respublikada arxitektura fanlari doktori 10 nafarni tashkil qiladi. Bu olimlar zahmat chekib, ne-ne qiyinchiliklar bilan doktorlikni Moskva, Peterburg, Kiev kabi shaharlarda yoqlashgan. Ular Mustaqillik yillari maoshining kam bo‘lishiga

qaramasdan tinmay mehnat qilishdi. Ta’kiddash lozimki, bitta ilmiy asar bir necha yillar davomida yaratiladi. Yana o’zlari hisobidai ilmiy monografiyalarini chop etishdi. Vatan hech bo’lmasa bergan maoshi bilan sening mehnatlaringni, ilmingni, ijodingni ardoqlamasa xalq ham, hatto farzandlaring ham seni ardoqlamaydi, sening mehnatingga shubha bilan qarashadi. Hattoki ular “men fan doktoriman degan so’zni biron joyda ayta ko’rmang, ustingizdan kulishadi”, deydigan bo’lishdi.

Mana necha yildirki, bizga turistlar butun dunyodan asosan, me’moriy obidalarimizni ko’ramiz deb kelishadi. Sobiq Ittifoq davrida TAQIning arxitektura fakultetida 40 — 50 nafar professor o’qituvchidan 9 - 10 nafari “O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan arxitektor” unvoni bilan taqdirlangan edi. Mustaqillikka erishganimizdan so’ng yuqorida keltirilgan sabablarga ko’ra “O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan arxitektor” unvoni yo’q bo’lib ketdi. Guyoki O’zbekistonda arxitektor yo’qdek yoki bittadek. Biroq, arxitektura obidalariga va Mustaqillik yillarida yangi qurilgan binolarga nisbatan aytiladigan taxsinlar oynayi jahon ekranlaridan tushmadi va hozir ham shunday.

Bu gaplarni aytishimdan maqsad Respublikamizda arxitektorlarga bo’lgan e’tiborni kuchaytirishni esga solish. Axir arxitektura bu ijodiy yo’nalishdagi bunyodkorlik san’atining biriku! Bino loyihasini faqat arxitektorlar yaratadi, konstruktorlar, santexniklar, iqtisodchilar tomonidan ularning konstruktiv, texnik qismi va smeta hisob-kitobi ishlanadi. Oxirgi navbatda bu loyiha quruvchilar qo’liga o’tadi.

Arxitektorlarning erkin ijod qilishlariga, arxitektura olimlariga ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga keng yo’l ochib berish vaqti keldi, deb o’ylayman. Mana hozirgi kunda Prezidentimiz SHavkat Miromonovich Mirziyoev respublikamizda katta o’zgarishlar qilmokdalar. Avvallari faqat Toshkent va viloyat markazlari, ba’zi tuman markazlarida e’tibor berilgan bo’lsa, hozirgi kunda Respublikamizning barcha shaharlari va qishloq joylarida ham zamon talablariga javob beradigan katta–katta imoratlar qurildi va qurilmoqda.

Respublikamiz hududi go‘yo keng va ulkan qurilish maydoniga aylandi. Qarabsizki, tez orada shahar va qishloqlarimiz jamoli tubdan o‘zgarib ketmoqda. SHaharlarimiz jamoli, go‘zalligi bilan faxrlanamiz, ularni jahonga ko‘z–ko‘z qilamiz. Lekin Arxitektura sohasi mutaxassislari, olimlari, ularning kasbi - kori hozirgidek halotga hech vaqt tushmagan. Qurilish Vazirligi o‘zini o‘zi arxitektorlardan ajratib oldi. Avvalgi “O‘zdavarxitek- qurilish qo‘mitasi” ga barham berildi. Arxitektorlar onasi, otasi yo‘q etimlarga aylanib qoldi. Mustaqqilik yillarida biron bir arxitektor “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan arxitektor” degan unvonga tag‘dim etilmadi. Bu narsalar ushbu soha kasb egalarining jamiyatdagi mavqeini pasaytirishdan boshqa narsa emas. Axir, bugungi kunda respublikamiz “imedji”ni aynan uning an‘anaviy va zamonaviy arxitekturasi, shaharsozlik san‘ati aks ettirib turgan bir paytda, arxitektorlarga bo‘lgan bunday munosabatni qoniqarli deb bo‘lmaydi. Xush vaziyatni sozlash uchun nima qilish kerak?

Buning uchun, birinchi navbatda, O‘zbekiston arxitektorlar uyushmasi bazasida davlat tassarufidagi (huddi O‘zbekiston badiiy akademiyasi kabi) Arxitektura va qurilish akademiyasini tashkil qilish lozim. Bunday akademiya sobiq Ittifoq davrida bor edi. Uni Ittifoq kommunistik partiyasining bosh kotibi N.S. Xreshchev yopib yuborgan edi. Bu bilan u sobiq Ittifoqda yangi arxitekturaning shakllanishiga katta ziyon etkazdi. Arxitekturaning andozaviylikka (tipovoy)ga aylantirganligi sababli barcha Respublikalarda turar-joy va jamoat binolari arxitekturasi deyarli bir xil bo‘lib qoldi. Har yili yangi yil oldidan televizorda namoyish etiladigan “S legkim parom” (“Qushday engil bo‘ling”) filmi ham aynan shu sababdan olingan. YA’ni tipovoy loyihalarga norozilik ma’nosida. Respublikamizdagi mavjud arxitektura va qurilish oliygohlarini bo‘lajak O‘zbekiston Arxitektura va qurilish akademiyasiga bog‘lash lozim. SHuningdek, Respublikamizdagi mavjud Qurilish vazirligining nomini qaytadan “Arxitektura va qurilish vazirligi” deb o‘zgartirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

SHuningdek, respublikadagi mavjud Arxitektorlar uyushmasi “ Arxitektura va qurilish akademiyasi”ni tashkil qilishni taklif etaman. Bu akademiya o‘z ustida

ishlayotgan fidoyi fan doktorlari, nomzodlari va loyihachi arxitektor va quruvchilardan taniqli mutaxassislarni qobul qilish kerak.

Arxitektura oliygohlarida ijodiy yo‘nalishdagi fanlarni zamon talablari doirasida yangilab turish huquqini kafedralarga berish, ijodiy yo‘nalishdagi institutlarda o‘quv bo‘limi rahbarligini tajribali, kelajakni oldindan ko‘ra biladigan mutaxassis arxitektor-pedagoglarga topshirish zarur.

Arxitektura oliygohlarining loyihalash institutlari bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish kerak. SHu o‘rinda bir misol keltiramiz: Janubiy Koreya texnika universitetida har bir talaba bir semestrda ishlab chiqarish bilan bog‘lanib, 500 dollarlik buyurtma bajarishi shart ekan. Bu masala yuzasidan ham chora-tadbirlarni izlash lozim. Buning uchun arxitektura oliygohlarini loyihalash institutlariga yaqin joyda joylashishini ta‘minlash masalasi ko‘rilishi kerak. SHu choqqacha loyiha institutlari qoshida oliygohlarning filiallari tashkil etilib kelindi. Bu biz kutgan natijani, samarani bermadi. Endi esa aksincha, oliygohlarda loyiha institutlarining firmalarini, ustaxonalarining filiallarini ochish maqsadga muvofiq bo‘lib qolmoqda.

Respublikamiz arxitektorlari o‘z saviyasi va salohiyati bilan chet el arxitektorlaridan hech ham qolishmaydi. Ularning ba‘zilari hatto xorijiy mamlakatlarda ham muvafaqqiyatli ish olib bormoqda. TAQI va SamDAQI ni bitirgan arxitektor kadrlar Qozoqiston, Rossiya, Evropoa mamlakatlari hatto AQSHda ham barakali ishlamoqdalar. Biroq, afsuski bizga loyihalovchi, zamon talablariga javob beruvchi quruvchi konstruktorlar, smetchiklar, yuqori malakali muhandis (injener) mutaxassislar etishmaydi. Milliy qurilishda moddiy texnikamiz, texnologiyamiz va madaniyatimiz esa sezilarli darajada past. SHu boisdan ham O‘zbekistondagi yirik zamonaviy qurilishlar amaliyotiga xorijiy mutaxassislarni, arxitektor va quruvchi konstruktorlarni jalb qilishga majbur bo‘lmoqdamiz.

YAna bir masala: “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan arxitektor” va “O‘zbekiston xalq arxitektori” unvonlarini joriy etish lozim. Bunday unvonlar mustaqillik yillarida, mana 30 yildirki, yuqorida eslatilgan sabablarga ko‘ra hech bir arxitektorga berilmadi. Vaholanki, bunday yuksak davlat unvonlariga loyiq

arxitektorlarimiz respublikamizda yo‘q emas. Bir narsa, qadim qadimdan ham me‘mor ustalar kamtarin, hayotda kamsuqum bo‘lib tug‘ilgan ijodkorlardir. SHuning uchun ham ular o‘z ism shariflarini o‘tmishda qurgan me‘moriy obidalarida yozib qoldirmagan. Biroq, ularning ham mehnatini ulug‘laydigan zamonlar endi keldi, deb o‘ylaymiz.

SHu paytgacha shukronalik arxitekturasini yaratib keldik. Nima yaratsak shukr qildik, shukr dedik. Endi zamonamizga mos va xos, “uyg‘oq arxitektura”ni yaratishimiz kerak. Uyg‘oq arxitektura deganda men nimani e‘tiborga olayapman? Biz bugungi kunda respublikamizning eski evolyusion taraqqiyotidan chiqish arafasida turibmizmi, demak, biz porloq innovatsion taraqqiyot yo‘lining boshidamiz. Hayotimizning barcha sohalari kabi O‘zbekiston arxitekturasida ham uyg‘onish, ya‘ni Renessans davri keldi, deb o‘ylayman. Men uyg‘oq arxitektura deganda aynan ana shularni nazarda tutmoqdaman.

Biz endi boriga shukr deb o‘tirmasdan, chin dilimizdan harakat qilmog‘imiz, buning uchun endi qalbi cho‘g‘ bo‘lib turgan yoshlarimiz ustiga sovuq suv sepib, ularni tutunga aylantirib emas, balki bu cho‘g‘larga alanga berib, ularni olovga aylantirishimiz zarur. Buning uchun biz faqat talabalarimizdan o‘z burchini talab qilavermasdan, o‘zimizning ham burchimizni yaxshi anglamog‘imiz kerak, endi biz pedagoglar ham aql-idrokimiz, iqtidorimizni yanada charxlashimiz kerak.

Biz endi yuksak madaniyatli va mahoratli pedagoglar bo‘lishimiz kerak, shu paytgacha biz o‘zimizni madaniyatli qilib ko‘rsatdik, biroq mahoratimiz yo‘q edi. Mahoratimiz bo‘lsa, madaniyatimiz etishmasdi. Endi esa madaniyatimizni mahoratimizga mushtarak etib, Vatanimizdagi yangi Renessansga, O‘zbekiston taraqqiyotiga o‘z hissamizni qo‘shmog‘imiz zarur.

BUXORO TURARJOYLARINING GENEZISI, ME‘MORIY SHAKLLANISHI.

Yunusov Shokir Mamatovich. Buxoro Davlat Texnika Universiteti
“Muhandislik” fakulteti, “Arxitektura” kafedrası katta o‘qituvchisi